2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 58 (1119), 2024-yil 21-mart, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Olam nurga to‘lsin sen bilan, Navro‘z!

BORLIQQA QAYTA JON BERGAYSAN, NAVRO‘Z!

Ota-bobolarimiz qahraton qishni ko‘kka chiqib olish ilinjida o‘tkazgan. Ko‘kka chiqish bilan qir-adirlarda qo‘y-qo‘zi, echki-uloqlar uchun rizq ortishi odamlarning-da rizqini kengaytiradi. Sut-qatiq, yog‘ mo‘l bo‘ladi. “Un, yog‘, o‘tin — ro‘zg‘or butun”, deb bejiz aytmaydi kattalar. Yog‘ bo‘lsa, un topilsa, dalada o‘sgan shifobaxsh ko‘katlar chuchvarayu somsaning ichida darmondoriga aylangan. Bahor kezlari qishloqqa borib qolsak, kelinlardan dalaga ko‘k tergani boryapsizlarmi, deb so‘rayman. “E, qiynalib nima qilamiz, bozorda arzimagan pulga hammasi bor-ku”, deyishadi. Aslida, gap o‘sha arzimagan pulda emas-da.

Bolaligimiz, o‘quvchilik kezlarimiz bahor, ayniqsa, Navro‘zning gashti o‘zgacha edi. 15-20 kun avval atlas ko‘ylak tiktirishdan boshlanajak xarxasha, sinflararo milliy taomlar musobaqasiga tayyorgarlik jarayoni ham zavqli edi. “Meni qiynamay, hammang bir xil taom olib boringlar”, deb qo‘yardi-yu, onam rahmatli besh bolaga yo‘q deganda 2-3 xil taom pishirganini bilmay qolar edi. Keng dalalarda chelak ko‘tarib, beda, otquloq, jag‘-jag‘ kabi bahor ne’matlarini terish zavqini his qilsam, hozir ham entikib ketaman. Yalpizni bahor yomg‘iri suvini bo‘tana qilgan ariqlar bo‘ylaridan izlardik. Ayniqsa, yam-yashil bedazor yoki bug‘doyzor oralab yurar ekanmiz, mayin bahor yomg‘iri yuzlarimizni silaganida bog‘cha bolasiday “Yomg‘ir yog‘aloq, yam-yashil o‘tloq”ni aytib sakrar edik. Bu shodliklarning barini bizga bahor, Navro‘z berardi.

Davomi 2-betda

22-mart — Mahalla tizimi xodimlari kuni

“EZGULIK – SHIORIMIZ, MA’RIFAT — QUROLIMIZ”

g‘oyasi mahallalar hayotida muhim o‘zgarish va yangilanishlarga zamin bo‘lajak

2020-yildan buyon yurtimizda 22-mart — Mahalla tizimi xodimlari kuni sifatida nishonlab kelinmoqda. Bu xalqimizning insoniyat tafakkuri rivojiga qo‘shgan ulushini butun dunyo bo‘ylab namoyish etish, mahalla bilan bog‘liq boy ma’naviy merosimizni qayta tiklash va bardavomligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Keyingi yillarda o‘zini o‘zi boshqarishning noyob tizimini chinakam xalq vijdoniga aylantirish, huquq va vakolatlarini kengaytirish, moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash borasida tizimli ishlar qilinmoqda. Xususan, mahallalarda ma’naviy-ma’rifiy islohotlar bilan bir qatorda aholi bandligini ta’minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga manzilli yordam ko‘rsatish, ishsizlarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, kambag‘allikni qisqartirish bilan bog‘liq keng qamrovli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

O‘zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon QURONBOYEV bilan suhbatimiz yurtdoshlarimiz hayotida ro‘y berayotgan ana shunday yangilanishlar, mahalla instituti mavqeini yuksaltirishga oid huquqiy va amaliy ishlar, mahallabay ishlash tizimi samarasi, milliy urf-odatlarimizni asrab-avaylash, kelajak avlodlarga asl holicha yetib borishiga qaratilgan yangicha tashabbus va loyihalar xususida bo‘ldi.

— Mahalla tizimidagi o‘zgarishlar yurtimizdagi ma’naviy evrilish, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish jarayonida qanday iz qoldirmoqda?

— Yangi O‘zbekistonni barpo etish, milliy yuksalish poydevorini yaratishga qaratilgan hayotbaxsh islohotlar yildan yilga kengayib, yangicha ma’no-mazmun bilan boyib boryapti. Ushbu jarayonda xalqimizning faol ishtirokini ta’minlash, erkin fuqarolik jamiyati, buyuk va qudratli davlat poydevorini yurtdoshlarimiz bilan birga qurish yo‘lida dadil qadam tashlanyapti. Bunday ezgu maqsadlarga erishishda mahalla institutining o‘rni muhim. Shu bois, odamlarning quvonch-u tashvishidan doimo xabardor bo‘lish mahallaning asosiy vazifasi ekani bot-bot aytiladi. Mahalla xalq bilan davlat o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lishi kerakligi ta’kidlanib, bu yo‘nalishdagi ishlarni tashkil etishning huquqiy va tashkiliy jihatlari yildan yilga takomillashmoqda.

Davomi 3-betda

Aholi turmush darajasi

DUNYOQARASHIMIZNI O‘ZGARTIRAYOTGAN MANZILLI MAQSADLAR

Oilada farzand dunyoga keldi. U ota-ona quvonchi, el-yurtning kelajak vorisi. Tez orada u bog‘chayu maktabda tarbiya topishi va o‘qishi, keyin tahsilni oliy ta’lim dargohida davom ettirishi yoki biror kasb-hunarning etagidan tutishi zarur bo‘ladi. So‘ngra unda ishlash, oila qurish, uyli-joyli bo‘lish kabi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga ehtiyoj tug‘iladi.

Bu bir oila misolidagi hayotiy zarurat. Uni butun bir mamlakat miqyosida tasavvur etsak, hududlarda aholining o‘sish darajasidan kelib chiqqan holda qancha bog‘cha, maktab, shifoxona, uy-joy qurish, zarur ijtimoiy infratuzilma va ish o‘rinlari yaratish kabi masalalarni oldindan rejalashtirib ish yuritish taqozo etiladi. Bunda aholining qanchasi qishloqda yashaydi-yu, qanchasi sha-harda, qanchasi erkag-u qanchasi ayol kabi jihatlar ham inobatga olinishi zarur.

— Aholi turmush darajasi tu-shunchasi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, uni tahlil qilishda bir qator statistik ko‘rsatkichlar hisoblab chiqiladi, — deydi Statistika agentligi boshqarma boshlig‘i Umid Madaminov. — E’tiborlisi, kuzatuvlar O‘zbekiston bu borada to‘g‘ri yo‘lni tanlaganini ko‘rsatmoqda. Ayni paytda yurtimizda yangi iqtisodiy imkoniyatlar vujudga kelyapti. Eng muhimi, fuqarolar o‘z hayotida iqtisodiy o‘sishni sezilarli darajada his qilyapti.

Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurish insonlarga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyat, munosib hayot kechirish uchun zarur sharoit yaratish, kambag‘allikni qisqartirish maqsadlari belgilangan.

“O‘zbekiston — 2030” strategiya-siga muvofiq, 2026-yilga qadar kambag‘allikni 2022-yilga nisbatan 2 barobar, 2030-yilga qadar esa kes-kin qisqartirish, kambag‘allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish belgilandi.

Bunga erishish maqsadida ijtimoiy yordamdan oilani kambag‘allik holatidan chiqarishga qaratilgan vosita sifatida foydalanish uchun davlat tomonidan berilayotgan kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasini ijtimoiy shartnoma tuzish orqali taqdim etish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ijtimoiy shartnoma tuzishda mablag‘larni inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirish maqsadida bolalarning maktab, maktabgacha ta’lim va boshqa ta’lim muassasalariga qatnashi kabi shartlar ishlab chiqildi. Eng asosiysi, minimal iste’mol xarajatlari qiymatini inflyatsiya darajasidan kelib chiqib, indeksatsiya qilib borish, aholi daromadi va xarajatlarining o‘zgarishini inobatga olgan holda kamida har besh yilda uning qiymatini qayta ko‘rib chiqish va ushbu miqdordan kelib chiqib, ijtimoiy nafaqalarni va eng kam pensiya miqdorini belgilash tizimini qo‘llash joriy etildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar va maqsadli ko‘rsatkichlar ijrosi har yili baholanadi hamda 2030-yilgacha bo‘lgan maqsadlarga erishish uchun unga tegishli o‘zgartirishlar kiritish haqida Vazirlar Mahkamasiga takliflar beriladi.

2023-yilda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish 6 foiz ortdi. Bu bugungi iqtisodiy inqiroz jarayonida katta yutuq. Kambag‘allikni 14 foizdan 11 foizga qisqartirishga erishildi.

Davlat tomonidan statistika sohasi isloh qilinib, kuzatuvlar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilyapti. Aholi turmush darajasini kuzatish ana shunday ishlar sirasiga kiradi.

Davomi 4-betda

Yetuklik ostonasida

MUVAFFAQIYAT O‘Z-O‘ZIDAN KELMAYDI

Maktabimizda mexanizatorlik yo‘nalishida kasb-hunar o‘rgatilgan. Shu bois, texnikaga qiziqqan sinfdosh qizlarimiz ko‘pchilikni tashkil qilardi. Bu yo‘nalishdagi bilim va salohiyati bilan o‘g‘il bolalardan aslo qolishmasdi. Ammo ularning traktor rulini boshqarish havasi orzuligicha qolib ketdi. Chunki ko‘plab ota-onalar mexanizator, quruvchi bo‘lish, yuqori unumli texnika boshqarishni qiz bolaga xos bo‘lmagan kasb sifatida baholagan. Natijada aksariyat qizlar hamisha kichik tarbiyachi, oshpaz singari barmoq bilan sanarli kasb sirlarini o‘rganish bilan cheklangan. Ularning ko‘pchiligi tanlagan kasb sohalarida tayinli ish topa olmay, sarson bo‘lgani ham bor gap.

Bu eskicha qarash va tushunchalar bugun o‘zgardi. Yigitlar kabi qirq hunar egasi bo‘lib, hayotda o‘rnini topish, yurt taraqqiyoti, farovonligiga munosib hissa qo‘shish yo‘lida izlanayotgan, iqtidorli qizlar safi kundan kunga kengayib bormoqda.

Farg‘ona politexnika instituti 4-bosqich talabasi Muhayyoxon Yo‘ldosheva yaqinda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Talaba qizning bunday yuksak e’tibor va e’tirofga loyiq topilgani bejiz emas, albatta.

Davomi 5-betda

Tomorqachilik

DEHQON HAMISHA IZLANISHDA BO‘LISHI KERAK

Nurotada Quvondiq Fayzanovni barcha taniydi. Dehqonchilik hadisini olgan bobo bugungi kunda ham tomorqasidan unumli foydalanish borasida tumandoshlariga o‘rnak. Ayni vaqtda xonadonidagi issiqxonasida limonlar g‘arq pishgan, to‘qsonbosti ekinlar baravj unmoqda, bo‘sh yerga esa ertaki ekinlar ekilgan.

Dehqonchilikda, xususan, tomorqadan samarali foydalanish borasida Navoiy viloyatining har bir hududi o‘ziga xos tajribaga ega. Aslida, ona zaminimiz unumdor va serhosil. Faqat mehnat qilib, unga e’tibor ko‘rsatilsa, mo‘l hosil olib, yaxshigina daromad ko‘rish mumkin. Aholi tomorqalarini esa bitmas-tuganmas xazinaga qiyoslasa arziydi. Sababi, bugungi sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalangan holda bir yilda 2-3 martagacha hosil yig‘ib olsa bo‘ladi. Nurota tumanida yashovchi mirishkorlar ham buning uddasidan chiqmoqda.

Davomi 4-betda

Boqiy meros

El an’anasini ulug‘lash san’ati

Hozir mahallalarda Navro‘z bayrami bo‘ladi, biroq odamlarni jipslashtiradigan, sof raqobatga, bu orqali esa san’atni, milliylikni, qadriyatlarimizni ulug‘lashga chorlaydigan beg‘ubor bellashuvlarni anchadan buyon ko‘rmay qo‘ydim. Qaniydi, ana shunday shukuh, Navro‘zga yil bo‘yi talpinib yashash hissi yana qaytsa...

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 21-mart, 58-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Olam nurga to‘lsin sen bilan, Navro‘z!

Borliqqa qayta jon bergaysan, Navro‘z!

Boshlanishi 1-betda

Bola tasavvurimda qolgan eng go‘zal bahoriy xotiralardan yana biri — mahallalararo bo‘lajak Navro‘z bayrami, o‘ziga xos shartlari bo‘lgan bellashuvlarni bugun ham juda-juda sog‘inaman. Biz bolalarning maktabdagi Navro‘z bayramlarimiz o‘tib bo‘lgach, onalarimizning tadorigi boshlanar edi. Ular ham mahallaning tadbiriga xuddi biz kabi tayyorlanardi. Bir gal mahallamizdagi yoshi kattaroq, lekin tashkiliy ishlarga juda chaqqon Muborakxon ayaning uyiga ayollaru bola-chaqa jam bo‘ldi. Onalarimiz bo‘ylari barobar tuvak gullar, kelinlar sepiga solinadigan palaklar, atlas qiyiqlar, gilamlarni o‘rtaga yig‘ib olibdi.

Bir payt uy egasi ichkaridan chiroyli bezatilgan beshik ko‘tarib chiqdi. “Chaqalog‘i borlar, sahnada alla aytganimizda, bittang bolangni solib turasan, uxlatib beramiz. Qara, lekin yuvoshrog‘ini berlaring-a”, deb kulib qo‘ydi. Rostdan shunday qilisharmikan, deb chaqalog‘i borlarga bir-bir qarab qo‘yaman. Hovli sahniga tashlangan gilamchaga bayram tadbiri uchun talaygina narsa jamlandi. Kerakli buyumlarning hammasi taxt bo‘lgach, kayvoni onaxon “vazifa”larni taqsimlay boshladi: “Falonchixon, siz yor-yorga, falonchilar kelinsalomga tayyorsizlar-a? Laparchilarimiz qani? Yana bir takrorlab olaylik”.

Qo‘liga do‘mbira ushlagan to‘lagina, quvnoqqina Jamolxon ismli ayolning shirali ovoziga mahliyo bo‘lib qoldim:

Deydi-yo deydi, bir qizi bor, deydi,
Bir qizining o‘ng yuzida
qirmizi bor, deydi.

Unga jo‘rovoz bo‘lgan sho‘x-shodon sheriklari esa bir-birini, bugunning tili bilan aytganda, laparlardan “popuri” qilishga undab, hayratimni yanada oshiradi:

Fabrikaning yo‘lidan-o
ro‘molcha topib oldim,
Topib oldi demanglar,
mehnatga sotib oldim-o,
Gulyoraxon, bo‘ylorizdan, Gulyor.

* * *

Tosh ko‘chadan yurmang, aka,
qoqilib ketasiz-o, qoqilib ketasiz,
Chiroyliga ko‘ngil bermang,
dog‘da qolasiz-a, dog‘da qolasiz.
Chiroylining sumkasida
upasi bordir-o, upasi bordir,
Upasini olib bergan akasi
bordir-o, akasi bordir.

* * *

Soy bo‘yida-yo turgan yigit,
Qoshi-ko‘zini suzgan yigit,
Bilaguzugimni olgan yigit-a,
Olgan bo‘lsang, ber bilaguzugimni.

Chekiga “Alla” aytish tushgan o‘rta yoshlardagi ayol uyqudan uyg‘otib, alla ayt deyishsa ham ayta olaman, deb maqtanadi. Xullas, kim maqol, kim qo‘shiq aytadi, bobodehqon rolini kim o‘ynaydiyu Bahoroy kim bo‘ladi, barchasini uddalay oladiganlar topildi. Mahallamiz odamlari chakki emas ekan. O‘zimga o‘zim “Nasib qilsa, men ham kattaroq bo‘lsam, boshlovchilik qilib, hammaga navbat berib turaman yoki spektaklda o‘ynayman”, deb qo‘yaman.

Bir payt orqasida aravasi bor traktor keldi. Haligi kayvoni ona mahallaning bo‘y yigitlarini ishga soldi: “Qani, ehtiyotlik bilan hamma yuklarni ortinglar. Gullarga, beshikka, ayniqsa, ehtiyot bo‘linglar”.

Gilamlar ustiga to‘shalgan qat-qat ko‘rpachalarga qo‘nishib o‘tirib olib qishloq guzariga qarab ketdik. Traktor tarillaydi, yo‘lda ko‘ringan boshqa mahalla odamlariga qiy-chuv qilib, biz birinchilikni olamiz, deganday qo‘limizni silkib ketamiz. Guzarga yetib borgach esa butun bir qishloq mahallalarining bir-biridan go‘zal sahnalariyu Navro‘z dasturxonini ko‘rib, ko‘ngilga g‘ulg‘ula tushadi. Xayriyatki, onalarimizga yordamchi bo‘lib biz ham sahnamizni hozirlab, dasturxon yozganimizdan keyin ulardan qolishmasligimizdan ko‘nglimiz to‘ladi.

“Bahor valsi” musiqasi bilan sahnaga chiqib kelgan boshlovchilarga hamma havas bilan boqadi, ayniqsa, men. Maktabni tamomlagach, albatta, poytaxtga borib, jurnalist bo‘lish istagim yanada kuchayadi. Shirin orzular og‘ushida ekanman, shartlar bo‘yicha bellashuv boshlanadi. Dastlab har bir mahalla nomining kelib chiqishiga to‘xtalib, ta’rif berildi. Har mahallaning chiqishi o‘ziga xos. Shu bois, birini biridan ustun qo‘yib bo‘lmaydi. Yana bilmadim. Biz tayyorlagan chiqishlar ularda bo‘lmasa kerak, degan umidda g‘oliblikni bergimiz kelmay, hayajonda turamiz. Birin-ketin barcha qilgan tayyorgarligimiz sahnaga ko‘chdi. Hammasi juda chiroyli, rejadagidek bo‘ldi. Hech kim adashib yoki hayajonlanib qolmadi.

Taomlarni baholovchi hakamlar bizning mahalla maydoni tomon yurgach, badiiy qismda qatnashmayotgan ayollar dasturxonning u yer-bu yerini o‘zgartira boshladi. Ko‘katlardan qilingan taomlar, “Navro‘z” so‘zi yozib undirilgan bug‘doyni, sumalakni ko‘zga tashlanadigan joyga ko‘chirishdi. Navro‘z dasturxoni bo‘yicha hamma mahalla birdek g‘olib bo‘ladi. Ammo badiiy qism borasida biz, albatta, g‘olib bo‘lishimizga men ham umid qilib turibman. Nihoyat, shunday bo‘ldi. Qishloq raisi g‘olib mahallaga katta qo‘chqor va’da qilgan. Butun mahalla ahli xursand, qo‘chqor uchun emas, mehnatlari yuzaga chiqqanidan, tayyorgarliklar samara bergani uchun bir-birini tabriklaydi. Ayniqsa, haligi katta onaxon ko‘zlariga yosh olib, “Ko‘rdinglarmi, ahillikda gap ko‘p, keyingi yil bundan ham yaxshi tayyorlanamiz”, deydi. Onalarimiz esa “Ilohim bizlarga ham sizning yo‘lingizni bersin”, deb unga havas qiladi.

Endi g‘oliblikni nishonlaymiz. Buning uchun ham mahalla binosida alohida o‘zimizning Navro‘z tadbirimiz tashkil qilinadi. Tashqaridan qaraganda, go‘yo katta bir oilaga o‘xshab ketardik. Gina-qudratlar unutilib, chehralar gulgun, qalblar shodon. Hamma-hammasi samimiy. Bu shukuh keyingi Navro‘zgacha qalbimizda qolardi va har Navro‘zda yangilanadi.

Hozir mahallalarda Navro‘z bayrami bo‘ladi, biroq odamlarni jipslashtiradigan, sof raqobatga, bu orqali esa san’atni, milliylikni, qadriyatlarimizni ulug‘lashga chorlaydigan beg‘ubor bellashuvlarni anchadan buyon ko‘rmay qo‘ydim. Qaniydi, ana shunday shukuh, Navro‘zga yil bo‘yi talpinib yashash hissi yana qaytsa...

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Hududlar hayoti

“UYIMIZGA MARHAMAT, MEHMON...”

Qo‘lbola simyog‘ochlar, yozda chang, qishda loyga botgan tor ko‘chalar, paxsadan qurilgan pastqam uylar...
Bu hamma uchun tanish bo‘lgan eski qishloq manzaralari. Ammo bugun chekka va olis qishloqlar qiyofasini o‘zgartirish, aholi turmush tarzi uchun muhim shart-sharoitlar yaratish, ijtimoiy himoyalash bilan bog‘liq ko‘p narsa o‘zgardi. Buni mana shu qadim maskanda asrlar davomida qo‘nim topib, umrguzaronlik qilayotgan oddiy odamlar hayot tarzi ham ko‘rsatib turibdi.

Uchko‘prik tumanidagi “Yakkamulla” mahalla fuqarolar yig‘inida “Obod xonadon — obod ko‘cha — obod mahalla” mezonlari asosida boshlangan bunyodkorlik, obodonchilik aholi ruhiyatini ko‘tardi. Xalqimizga xos mehr-oqibat, muhtoj kishilarga sunyachiq bo‘lish singari ezgu fazilatlar quloch yozdi. To‘g‘ri, hamma ishni birdaniga hal etishning imkoni yo‘q. Lekin harakat qilinyapti, izlanilyapti, tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanyapti.

— Dastur doirasida mahalladagi 8,4 kilometr ichki yo‘lni ta’mirlash, 2 kilometr piyodalar yo‘lagi barpo etish ishlari poyoniga yetmoqda, — deydi mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Nodirjon Mamajonov. — Aholining toza ichimlik suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida bitta quduq qazilib, 3,5 kilometr suv tarmog‘i tortildi. Qo‘lbola simyog‘ochlarni temir-beton ustunlarga almashtirish, yangi transformatorlar o‘rnatish, mavjudlarini ta’mirlash bosqichma-bosqich davom etmoqda. Shu kunga qadar hududdagi 5,87 kilometr ichki yo‘lga shag‘al to‘kildi. Kunlar ilishi bilan asfaltlash boshlanadi.

Har bir ish Prezident Administratsiyasi, Xalq qabulxonasi, viloyat va tuman mutasaddilaridan iborat ishchi guruh tomonidan kunlik nazorat qilinib, xonadon va ko‘chalar holati o‘rganilib, fuqarolar muammolariga ijobiy yechim topilmoqda.

— Esimni taniganimdan buyon yozda chang, qishda loyga botgan, zimiston ko‘chalarda yurib, qo‘shni qishloqdan suv tashib kelishga majbur bo‘lganmiz, — deydi mahalla faoli Shahboz Komilov. — Yosh bolali, yakka-yolg‘izlar yog‘in-sochinli kunlarda ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelardi. Biz ham boshqalar qatori qulay shart-sharoitlarda yashashni orzu qilardik, niyatlarimizga yetdik. Ravon yo‘llar, zilol suvlar, yangi ishlab chiqarish tarmoqlari tashkil etish borasidagi ishlardan quvonyapmiz. Mana, bo‘lar ekan-ku!

Yillar davomida samarasiz foydalanib kelingan eski binoda ta’mirlash, qayta qurish ishlari boshlangan. Hozir nuroniylar maskani, otalar choyxonasi, yoshlar kutubxonasi, shaxmat-shashka to‘garaklari faoliyati uchun kerakli shart-sharoitlar yaratildi. Tadbirkor Otabek Tojiyev tashabbusi bilan mato to‘qish va bolalar trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirildi. Bu yerda tikuvchilik malakasiga ega ishsiz 15 dan ortiq xotin-qiz uchun yangi ish o‘rinlari yaratilgan.

— Uyimizga yaqin joyda zamonaviy sex ishga tushgani ayni muddao bo‘ldi, — deydi Gulnoza Ismoilova. — Mahallamizda bunday ishlab chiqarish yo‘q edi. Aksariyat xotin-qizlar tuman markazi yoki Qo‘qon shahridagi turdosh korxonalarga borib ishlardi. Qatnab ishlashga imkonim yo‘qligi uchun uyda o‘tirgandim, ishga taklif qilishdi, bajonidil rozi bo‘ldim. Bu ish farzandlarim ta’lim-tarbiyasini nazorat qilib turish imkoniyatini ham bermoqda.

Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash, moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatish, kundalik hayot tarzi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida qilinayotgan ishlar ko‘ngillarga quvonch, shodlik olib kirmoqda.

Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.

Marhamatoy Jo‘rayeva hayotning achchiq sinovlariga dosh berib, oila deb atalmish muqaddas qo‘rg‘onning katta yukini yelkalab olganlardan. Avvaliga suyangan tog‘i — turmush o‘rtog‘idan, keyinroq yolg‘iz jigarbandi — o‘g‘li va kelinidan ayrildi. Bu hayot sinovlari mushfiq ona qaddini bukib qo‘ygani rost. Ammo hayotga bo‘lgan umidini uzmadi. O‘g‘lidan qolgan ikki yodgorini opichlab ulg‘aytiryapti.

Oila hayot tarzi o‘rganilib, uy-joylarni ta’mirlash boshlab yuborildi. Yangi oshxona, ayvon qurildi, tom qismi shiferlandi. Hovli sathiga beton qoplamalar yotqizilib, ta’mirdan chiqarildi. Tikuvchi bo‘lish istagida bo‘lgan to‘ng‘ich nevarasi Madinaga subsidiya asosida tikuv mashinasi berildi.

— Uyning poydevori va kesak devorlari yorilib, yaroqsiz holga kelib qolgandi, — deydi Turobjon Mamatqulov. — Yog‘ingarchilik bo‘lsa, tomidan chakki o‘tadi. Ta’mirlashga imkon topa olmay, mahallamizga yaqin bo‘lgan fermer xo‘jaligi dala shiyponida jon saqlayotgandik. Bizga barcha qulayliklar mujassam, pishiq g‘ishtli, 3 xonali uy qurib berishayotganidan qalbim quvonchga to‘ldi. “Mahsudali Dehqonov” fermer xo‘jaligiga ishga joylashdim. Nasib qilsa, Navro‘z bayrami kunlarida yangi uyga ko‘chib o‘tamiz.

Bu yerda 241 ta xonadonda obodonlashtirish ishlari bajarildi. 32 ta xonadon tomi ta’miri uchun 650 dona shifer ajratilib, soz holatga keltirildi. 41 ta xonadonning tashqi qismi ta’mirlandi. “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan aholining ehtiyojmand qatlamiga dehqonchilik uchun yer, asbob-uskunalar uchun subsidiya ajratish, bandligini ta’minlash doimiy e’tiborda. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, iqtidorlilarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash maqsadida Baxshitol ko‘chasida zamonaviy workout sport maydoni qurildi.

Hududdagi 35-oilaviy shifoxonada aholi chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, aniqlangan kasalliklarni davolash yuzasidan zaruriy tavsiyalar berib borilyapti.

— Ko‘zim yaxshi ko‘rmay qolgandi, — deydi Olmazor ko‘chasida yashovchi Dilnoza Jo‘rayeva. — Bir necha bor davolandim, natija bermadi. Jarrohlik amaliyoti o‘tkazishga imkoniyat topa olmayotgandik. Respublika ko‘z kasalliklari shifoxonasida davolanish uchun bepul yo‘llanma berishdi.

Mahalla ahli murojaatlari inobatga olinib, piyodalar yo‘laklari qurishga alohida e’tibor qaratildi. Bu bejiz emas. Hududni Buvayda — Qo‘qon katta avtomobil yo‘li kesib o‘tgan. Yo‘l tor, transport qatnovi ko‘p. Bu piyodalar bilan bog‘liq ko‘plab yo‘l-transport hodisalari kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Farzand va nabiralarini maktab yoki bog‘chaga kuzatgan ota-onalar katta yo‘l bo‘yida alohida yo‘lak yo‘qligi uchun ming xavotirda yo‘l poylab o‘tirardi.

— Maktabga borib-kelish uchun salkam 400 metr piyoda yuramiz, — deydi 14-umumta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchisi Hayotxon Siddiqova — Piyodalar uchun yo‘lak qurib berish yuzasidan juda ko‘p joylarga murojaat qilingan. Ammo turli bahonalar ro‘kach qilinib, masalaga ijobiy yechim topilmayotgan edi. Qishlog‘imizda bo‘layotgan bunyodkorliklar mavjud masalalar yechimida qo‘l keldi.

Piyodalar yo‘lagi qurilib, harakat xavfsizligi ta’minlandi. Shuningdek, “mahalla yettiligi” uchun yangi bino qurish, 14-umumta’lim maktabi, 35-maktabgacha ta’lim tashkilotini ta’mirlash yuzasidan dasturlar ishlab chiqilib, amaliy ishlar boshlandi.

“Yakkamulla” mahalla fuqarolar yig‘inida aholi farovonligi yo‘lidagi bunyodkorlik ishlari bir dam bo‘lsa-da to‘xtagani yo‘q. Har kuni bir o‘zgarish va yangilik.

Ko‘hna qishloqqa yo‘lingiz tushsa, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, “Uyimizga marhamat, mehmon...”, deya chorlovchi, sodda va samimiy kishilar suhbatidan bahramand bo‘lasiz.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

22-mart — Mahalla tizimi xodimlari kuni

“EZGULIK — SHIORIMIZ, MA’RIFAT — QUROLIMIZ”

g‘oyasi mahallalar hayotida muhim o‘zgarish va yangilanishlarga zamin bo‘lajak

Boshlanishi 1-betda

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mahalla instituti maqomi mustahkamlandi. Barcha soha va yo‘nalishlar bo‘yicha mahallabay ishlash tizimi joriy qilinib, “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili amaliyotga tatbiq etildi.

Oxirgi yetti yilda tizimni takomillashtirishga doir yuzga yaqin me’yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinib, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektoridan iborat ta’sirchan tuzilma faoliyati yo‘lga qo‘yilgani ijobiy samara beryapti. Jumladan, mahallalarda tadbirkorlik faoliyati rivojlanib bormoqda. Bu esa yangi ish o‘rinlari, doimiy daromad manbalari yaratilishi orqali oilalar farovonligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mazkur tuzilmaning jamiyatimizdagi nufuzini yanada oshirishda muhim dasturulamal bo‘lmoqda. Ushbu hujjatlar asosida respublika, viloyat, tuman va shahar mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlari, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi va uning hududiy tuzilmalari tashkil etildi.

Har bir fuqarolar yig‘inida “mahalla yettiligi” shakllantirilib, aniq vazifalari, birgalikda qiladigan ishlari belgilab berildi. Mahalla xodimlari faoliyatini asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha alohida baholash tartibi joriy etilmoqda. Barcha mahallalarda “mahalla budjeti” tizimi yo‘lga qo‘yildi. Eng muhimi, mahallaning aholiga ijtimoiy ko‘mak berish borasidagi vakolatlari kuchaytirildi. Endilikda “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatish va subsidiya ajratish “mahalla yettiligi”ning birgalikdagi qarori asosida amalga oshirilyapti.

Mahalla, avvalo, ma’naviyat, tarbiya beshigi. Bugungi yangilanishlar jarayonida uning ushbu tarixiy xususiyatini asl holicha saqlash va boyitish ham e’tiborda. Bu yo‘nalishda “mahalla — maktab” konsepsiyasi asosida ko‘plab ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, targ‘ibot ishlari yuritilyapti. “Ota-onalar universiteti” jamoatchilik tuzilmasi faol ishlamoqda. Tegishli davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda “Bir nuroniy o‘n yoshga mas’ul” loyihasi amalga oshirilyapti.

— Aholini qiynayotgan muammolar yechimi bo‘yicha mahallaga murojaat qilish tizimi qanday samara beryapti?

— Bu tizim ham yildan yilga takomillashib, “Inson qadri uchun”, “Inson manfaati hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” kabi insonparvarlikka yo‘g‘rilgan ezgu tamoyillar ijrosining muhim ko‘zgusiga aylanmoqda. Ayniqsa, Konstitutsiyamizda aholining mahallaga murojaat qilish huquqi mustahkamlangani bu jabhadagi ishlarning takomillashuvida muhim huquqiy asos bo‘ldi.

Bundan tashqari, Bosh qonunimizda mazkur fuqarolik jamiyati instituti mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlari, rivojlanishning tarixiy o‘ziga xos xususiyatlari, milliy qadriyatlar, mahalliy urf-odat va an’analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli ekani belgilangani aholi murojaatlari bilan ishlashda keng istiqbollarni ochdi.

Endi odamlar o‘zlarini qiynayotgan muammolar yechimini hal etishni so‘rab, har xil idoralarga qatnashiga hojat qolmadi. Bugungi kunda mahallaga murojaat qilish orqali ko‘pgina masalalarga ijobiy yechim topyapti. Ayniqsa, kundalik hayotimizda muhim o‘rin tutadigan, hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan — suv, elektr energiyasi, gaz va boshqa masalalar bo‘yicha mahallalar tizimli ish olib bormoqda.

Shu bilan birga, barcha rahbarlar mahallalarga borib, o‘z sohasi bo‘yicha aholini qiynayotgan muammolarni o‘rganishi va uni joyida hal etishi ham yo‘lga qo‘yildi. 2023-yil aholi e’tiroziga sabab bo‘layotgan ana shunday muammolarni aniqlash va joyida hal etish maqsadida 2857 ta sayyor qabul o‘tkazildi, qabullar davomida 21 ming 255 nafar fuqaroning murojaatiga joyida yechim topildi.

Mahalla raislari va “yettilik” vakillari ehtiyojmand, kam ta’minlangan, oilaviy sharoiti og‘ir xonadonlardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni muntazam ravishda xonadonbay o‘rganmoqda va aniqlangan muammolarning yechimini topish choralari ko‘rilyapti.

“Tashabbusli budjet” loyihasi doirasida ham mahallalar hayotiga oid ko‘plab masalalar hal etilayotir. Jumladan, 2023-yilda aholi tomonidan suv, elektr energiyasi, yo‘l, maktab kabi yo‘nalishlar bo‘yicha taklif berilgan loyihalar uchun 8 trillion so‘m yo‘naltirildi.

Mahallalarda ijtimoiy daftarlar yuritish orqali aholi muammolarini hal qilish borasidagi ishlar ham kambag‘allikni bartaraf etish, oilalarning daromadini oshirishda samara bermoqda. O‘tgan yil “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 405 ming nafar ishsiz yurtdoshlarimizga subsidiya ajratildi. Tabiiyki, bu imkoniyatlar ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga joyida yechim topish, xalqimizni rozi etishga xizmat qilmoqda.

Mahallani jamoatchilik va davlat organlari o‘rtasidagi tayanch bo‘g‘inga aylantirish joriy yilgi davlat dasturida ham ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilangan. Xususan, 2024-yil 1-apreldan “Tashabbusli budjet” doirasidagi loyihalarni tashabbuskorlar, mahalla raisi va faollarining ish sifati yuzasidan roziligi olinganidan keyingina foydalanishga qabul qilish tartibi joriy etiladi. 1-avgustga qadar esa fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga “Tashabbusli budjet” doirasidagi loyihalar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlaridan ma’lumotlar olish, mablag‘ o‘z vaqtida va to‘liq ajratilishini talab qilish hamda loyihalar amalga oshirilishini jamoatchilik tomonidan monitoring qilish imkoniyati yaratilmoqda.

— Mahalla obodligi — yurt obodligi, degan qarash bugun hayotimizga chuqur singib boryapti. Ushbu yo‘nalishdagi tegishli dastur va loyihalar samarasi haqida ham to‘xtalib o‘tsangiz.

— Qaysi sohada ishlashimizdan qat’i nazar, barchamizning yashash joyimiz mahalla hisoblanadi. Shu bois, mamlakat miqyosidagi islohotlar mahalla hayotida aks etsagina bu yangilanishlar nafasi har bir insonning hayotiga kirib boradi. Bugungi kunda islohot va o‘zgarishlarni mahalla darajasida tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad ham shu, aslida. Zero, mahallaga kirib borgan islohotlar oilalarga, inson qalbiga yetib boradi. Uni har kim o‘z hayoti, taqdiri misolida his etadi. Ayniqsa, mahallaning chiroy ochishi, infratuzilmasi yaxshilanishidan, avvalo, shu hududda yashayotgan insonlar bahramand bo‘ladi.

Shu ma’noda, yurtimizda izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotgan “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarining bu boradagi o‘rnini alohida qayd etish joiz. Ushbu dasturlar doirasida joylarda bajarilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari natijasida qishloq va ovullar, aholi yashash hududlarida yo‘l-transport infratuzilmasi yaxshilanyapti. Joylarda ijtimoiy soha inshootlari qurilyapti, xizmat ko‘rsatish shoxobchalari ko‘paymoqda. Olis tuman va qishloqlarga ham ichimlik suv tarmoqlari tortilyapti. Natijada aholi turmush sharoiti yaxshilanmoqda.

Prezidentimizning 2022-yil 18-martdagi “2022-2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosi natijasida o‘tgan yili 1297 ta qishloq va mahallada qurilish, ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari bajarildi.

> Mahallabay tizim joriy etilgan oxirgi ikki yilda mahallalarda 176 mingta yuridik va 194 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida hokim yordamchilari tavsiyasi bilan qariyb 900 mingta loyihaga 20 trillion so‘m imtiyozli kredit ajratildi.

Aholiga qulaylik yaratish maqsadida hududlarda minglab kilometr elektr va gaz tarmoqlari modernizatsiya qilindi. Joylarda yangi bozorlar va boshqa infratuzilma inshootlari qad rostladi. Ko‘chalarga tungi yoritish chiroqlari o‘rnatildi, sug‘orish tizimlari yaxshilandi. Bu imkoniyatlar chekka qishloqlarda ham shahardan kam bo‘lmagan sharoit yaratishga, oilalar farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mahallalar obodligini ta’minlashda “Yashil makon” umummilliy loyihasining o‘rnini alohida qayd etish joiz. Bu boradagi ishlar tufayli hududlarda bog‘-rog‘lar, yashil hududlar kengaymoqda. Aholi yashash manzillari kundan kun chiroy ochib, go‘zallikka burkanyapti. Bunday ishlar mamlakatimiz qiyofasini tubdan o‘zgartirib, xalqimiz turmush darajasi va madaniyatini yuksaltirishga zamin yaratmoqda.

— Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish islohotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Bu ishlar xalqimizning hayotida, turmush tarzida qanday o‘zgarish yasayapti?

— Darhaqiqat, keyingi yillarda mahallalarda tadbirkorlik muhiti kuchayib boryapti. Bu voqelik tarixiy an’analarimiz bilan hamohangdir. Zero, yaratish va bunyodkorlikni yuksak qadrlagan ota-bobolarimiz azal-azaldan farzandlariga ta’lim-tarbiya berish barobarida hunar o‘rgatishga ham alohida e’tibor qaratgan.

Bugun mahallalarda yo‘lga qo‘yilayotgan tadbirkorlik loyihalari har bir mahallaning o‘ziga xos an’analari, imkoniyatlari hisobga olingan holda ro‘yobga chiqarilyapti. Bu ishlar natijasi esa qisqa muddatda o‘z mahsulini beryapti. Mahallalarda ishlab chiqarish, sanoat, tadbirkorlik, hunarmandlik, tomorqachilik rivojlanyapti.

Mahallabay tizim joriy etilgan oxirgi ikki yilda mahallalarda 176 mingta yuridik va 194 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida hokim yordamchilari tavsiyasi bilan qariyb 900 mingta loyihaga 20 trillion so‘m imtiyozli kredit ajratildi. Hokim yordamchilari tomonidan shakllantirilgan 92 mingta mikroloyiha ishga tushirilib, 380 mingta ish o‘rni yaratildi. Bu raqamlar ortida qanchadan qancha odamlar, oilalar taqdiri yotibdi. Ana shu ishlar natijasida boqimandalik kayfiyati kamayib, tadbirkorlik muhiti, ajdodlarimiz an’analariga mos yaratish zavqi kuchayib boryapti.

Eng muhimi, bu xayrli ishlar to‘xtab qolmayapti. Aksincha, yangi-yangi mezonlar asosida rivojlanmoqda. Yaqinda Prezidentimizning Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumaniga tashrifi asnosida bunga yana bir karra ishonch hosil qildik. Davlatimiz rahbari yashash sharoitlari, aholi o‘rtasida tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish, oilalarning daromadini oshirish borasidagi ishlar bilan tanishib, tomorqa va uy xo‘jaliklaridagi imkoniyatlarni to‘liq ishga solish orqali qishloq aholisining turmushini yanada yuksaltirish borasidagi vazifalarni belgilab berdi. Bu chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish mahalla tizimi xodimlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Zero, bugun xalqimiz o‘z hayotida sezishi uchun hamma ishlar mahallada tashkil qilinyapti. Maqsad esa oilalarning daromadini oshirish, xalqni boy qilish.

— Mahallalar yanada obod va fayzli maskanga aylanishi, xalqimiz hayotidagi o‘rni yuksalishi uchun bu tuzilmaning moddiy-texnik bazasi ham shunga mos bo‘lishi kerak, albatta. Uyushma bu borada mahallalarga qanday ko‘mak beryapti?

— To‘g‘ri, yaxshi ishlash uchun sharoit ham yaxshi bo‘lishi kerak. Shuni inobatga olib, uyushma faoliyati yo‘lga qo‘yilgan ilk kunlardanoq mahallalarning moddiy-texnik salohiyati yuzasidan o‘rganish o‘tkazdik. Ma’lum bo‘lishicha, hozir 1 100 dan ko‘proq mahalla haliyam o‘z binosiga ega emas. Qolaversa, ko‘pgina mahallalarda ish jarayonida foydalaniladigan texnika va texnologiyalar eskirgan. Bu muammoni hal etish uchun mahalliy hokimlar bilan hamkorlikda ishlayapmiz. Bir qator viloyatlar mahalla binosini yangilashni zimmasiga olyapti. Ularni uyushma hisobidan jihozlamoqchimiz. Qolgan hududlarda ham bu masalada izlanish olib borilyapti.

Eng muhimi, bu masala davlatimizning alohida e’tiborida. Davlat dasturida bu yo‘nalishda muhim vazifalar belgilangan. Jumladan, mahalla faoliyatini raqamlashtirish, “Mahalla balansi”ni shakllantirish bilan bog‘liq muhim chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. Bu yo‘nalishdagi o‘rganishlar asosida respublikamiz bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar shakllantirildi. Unda mahallalar haqida, oilalarning tarkibi, ijtimoiy holati bo‘yicha ma’lumotlar jamlandi. Shuningdek, ko‘chalar, ziyoratgohlar, qabristonlar soniga ham aniqlik kiritildi.

Bundan tashqari, aholi ijtimoiy holati tahlil etilib, ishsizlar soni aniqlandi. Tomorqasi bor xonadonlar va undan foydalanish holati ham o‘rganildi. Mahallalar infratuzilmasi va ulardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan o‘rganishlarni ham alohida qayd etish lozim. Bu ko‘rsatkichlar kelgusida mahallalar faoliyatini yanada takomillashtirish, aholini qiynayotgan muammolarni joyida hal etish, jamiyatimizdagi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

— Yurtimizdagi har bir mahallaning o‘z tarixi bor. Buni ularning nomlanishi ham ifoda etadi. Ushbu tarixiy salohiyatni asrash va yoshlarga yetkazishda qanday ishlar rejalashtirilgan?

— Bugun mamlakatimizda 9452 ta mahalla faoliyat yuritmoqda. Ularni nomlashda hududning tarixiy nomi va aholi tashabbuslari inobatga olinyapti. Bu borada joylardagi atamalar bo‘yicha komissiyalar bilan mahalla faollari yaqindan hamkorlikda ish olib boradi. Ko‘pgina mahallalarimiz o‘z tarixini o‘rganish va targ‘ib etish bo‘yicha muayyan ishlarni amalga oshiryapti. Buni mahallalarda tashkil etilgan mahalla tarixi bo‘yicha burchaklardan ham bilish mumkin.

Ammo bugungi ma’naviy islohotlar talabidan kelib chiqib, bu ishlarni yanada jonlantirish, yoshlarning o‘zi yashayotgan hudud tarixi bo‘yicha bilim va dunyoqarashini boyitish zimmamizdagi asosiy vazifa. Zero, tarixini bilgan har bir yigit-qizning o‘zligiga sadoqati kuchli, yurtga muhabbati yuksak bo‘ladi. Kelgusida bu yo‘nalishda taklif va tashabbuslarni o‘rganib, yangi-yangi loyihalarni amalga oshirish niyatidamiz.

Zero, bugungi globallashuv davri ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarni aslo susaytirishga yo‘l bermaydi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ma’naviy tarbiya ishlarini endi mutlaqo yangicha usulda olib borishimiz kerak. **“Ezgulik — shiorimiz, ma’rifat — qurolimiz”** g‘oyasi asosida bu jarayonni, avvalo, oiladan, mahalladan boshlashimiz lozim. Bu borada jamoamizda salohiyat va imkoniyat yetarli. Ishonchim komilki, zimmamizga yuklangan vazifalarni munosib ado etib, xalqimizni rozi qilishga erishamiz.

Bugun yurtimizda qo‘shaloq bayram shukuhi kezib yuribdi. Ya’ni Navro‘z ayyomi bilan bir qatorda Mahalla tizimi xodimlari kuni ham nishonlanyapti. Qolaversa, bu yilgi milliy bayramlarimiz Ramazon oyiga to‘g‘ri kelganida ham o‘zgacha hikmat bor. Zero, bunday saodatli kunlarda, ulug‘ ayyomlarda sabr-qanoat, xayr-u saxovat fazilatlari ziyoda bo‘ladi. Bu esa xalqimizga, yoshlarimizga o‘zlikni anglatish, jamiyatimizda mehr-oqibat, xayr-saxovat muhitini kuchaytirishga zamin bo‘ladi.

Fursatdan foydalanib, shunday shukuhli kunlarda tilagim, avvalo, yurtimiz tinch bo‘lsin. Har bir xonadon va mahalladan doimo shodlik va baxt sadosi taralib tursin. Hamkasblarimizga ham el-yurt manfaati yo‘lida qilayotgan xayrli ishlarida hamisha omad yor bo‘lishini tilayman. Kimning dilida qanday ezgu niyat bo‘lsa, ro‘yobini bersin.

Asrlar osha yashab kelgan qadriyatlarimiz bardavom bo‘lsin!

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Bahor XIDIROVA suhbatlashdi.

Fuqarolar daromadi darajasi ular farovonligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. U jamiyat har bir a’zosining hordiq chiqarish, bilim olish, sog‘liqni saqlash, zaruriy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilaydi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 21-mart, 58-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Aholi turmush darajasi

DUNYOQARASHIMIZNI O‘ZGARTIRAYOTGAN MANZILLI MAQSADLAR

Boshlanishi 1-betda

Statistika agentligi Jahon banki bilan hamkorlikda bir necha yildan bo‘yon O‘zbekiston aholisining turmush darajasini o‘rganish bo‘yicha uy xo‘jaliklarida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazib keladi.

Xususan, respublika bo‘yicha 2022-yilda 14 mingta, 2023-yilda esa 16 mingta uyda shunday kuzatuvlar olib borildi. Buning uchun aholi turmush darajasini aks ettiruvchi 700 dan ziyod ko‘rsatkich shakllantirildi. Ularning natijasi asosida esa oilalarning minimal iste’mol xarajati qiymati, daromadi, uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar bilan ta’minlangani, uy-joy sharoiti va qulayliklari, sayohat hamda jismoniy faolligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yuzaga keldi.

Uyma-uy yurib o‘tkazilgan so‘rovnomalar ro‘yxatiga 150 dan ortiq turdagi oziq-ovqat, 200 dan ziyod turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari hamda boshqa xizmat turlari va ularga qilingan xarajatlar kiritildi. Bunda so‘rovda ishtirok etgan uy xo‘jaliklari xarajatlar miqdori bo‘yicha o‘nta guruhga bo‘linib, ulardan eng kam xarajat (daromad)ga egalari alohida ajratiladi. Hisob-kitoblar minimal iste’mol xarajatlari, aholi jon boshiga kunlik daromad asosida amalga oshiriladi.

2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 3 foiz qisqargan va 11 foizni tashkil etgan (2022-yilda bu ko‘rsatkich 14,1 foiz bo‘lgan). Yil davomida kambag‘allik darajasining eng yuqori pasayishiga Sirdaryo, Andijon va Xorazm viloyatlarida erishilgan.

> **Aholi daromadlariga, asosan, mehnat uchun olgan ish xaqi, individual mehnat, tadbirkorlik faoliyatidan keladigan, mulk va boshqa daromadlarni kiritish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida O‘zbekistonda aholi daromadi turlari, jumladan, tadbirkorlik, mulk daromadlari kabilar ko‘payib bormoqda.**

— Umumiy daromadlar va joriy tushumlar aholi turmushida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ular iste’mol qilish yoki jamg‘arish imkoniyatini oshirish orqali yashash sifatini ta’minlaydi. Bu boradagi tahlillar natijasi qanday?

— Aholining umumiy daromadlari — majburiy to‘lovlar va boshqa ajratmalarni amalga oshirgunga qadar bo‘lgan yalpi daromadni ifoda etadi. Bunga pul va natura shaklidagi daromadlar kiradi hamda doimiy asosda takrorlanuvchi xususiyatga ega bo‘lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig‘idagi davrda uy xo‘jaligi yoki uning alohida a’zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi.

Aholi daromadlariga, asosan, mehnat uchun olgan ish xaqi, individual mehnat, tadbirkorlik faoliyatidan keladigan, mulk va boshqa daromadlarni kiritish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida O‘zbekistonda aholi daromadi turlari, jumladan, tadbirkorlik, mulk daromadlari kabilar ko‘payib bormoqda. Xususan, aholi daromadlari 2023-yilga kelib, 2018-yilga nisbatan 2,2 barobar oshgan.

O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning 6 yillik dinamikasi, ming so‘m



Raqamlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, umumiy daromadning 70,5 foizi ishlab chiqarishdan, 6,5 foizi shaxsiy iste’mol uchun ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingani ma’lum bo‘ladi.

Bozor sharoitida asosiy ish joyidan beriladigan maosh aksariyat fuqarolar uchun asosiy daromad manbai hisoblanadi. Aks holda, u funksional rolini bajara olmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda ish haqi aholi jami daromadining 60-80 foizini tashkil etadi, ya’ni ularning me’yoriy hayot faoliyatini ta’minlash poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, aholi umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan 2,8 foiz, transfertlardan 26,7 foiz daromad ko‘rilgan.

Kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar tufayli ushbu sohadagi daromad ulushi yil sayin oshib bormoqda. O‘tgan yili 57 foizni tashkil etgani shundan dalolat beradi. Bunga sohaning turli imtiyoz, kredit va subsidiyalar orqali davlat tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanayotgani sabab bo‘ldi.

Shuningdek, daromadlar tarkibida yollanma ishchilarning ish haqiga nisbatan ijtimoiy transfertlar o‘sishi kuzatilmoqda. Bu esa o‘tgan yili ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sezilarli darajada kuchayganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati

	Jamiga nisbatan, foizda		O‘sish sur’ati, foizda
	2022 y.	2023 y.	
Umumiy daromadlar — jami	**100**	**100**	**115**
Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	**61,4**	**64**	**119,8**
Shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar	**6,5**	**6,5**	**115,6**
Mol-mulkdan olingan daromadlar	**2,2**	**2,8**	**143,7**
Transfertlardan olingan daromadlar	**29,9**	**26,7**	**103**

Mol-mulkdan olingan daromadlar juda kam bo‘lsa-da, tijorat banklariga ishonch ortishi, innovatsion ishlanmalar rivoji, qolaversa, uy-joy va boshqa ko‘chmas mulk obyektlarini ijaraga berish va shu kabi bozor mexanizmlarining takomillashuvi natijasida odamlar qo‘liga kelib tushayotgan foizlar, dividendlar, mualliflik haqlari ham yil sayin o‘syapti. Masalan, 2010-yilda aholi umumiy daromadlari tarkibida mulkiy daromadlarning ulushi 1,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda ushbu ko‘rsatkich 2,8 foizga yetdi.

— Bu yil belgilangan asosiy maqsad-vazifalarda qanday yo‘nalishlarga e’tibor qaratilyapti?

— Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va hududiy dasturlar zamirida ish o‘rinlari tashkil qilish, aholi hayotini yaxshilash maqsadi mujassam. Ko‘rilgan shunday tadbirlar natijasida so‘nggi yillarda 2 million 400 ming aholi o‘zini o‘zi band qildi. Qariyb 2 million odam kambag‘allikdan chiqarildi. “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi doirasida 455 ming kishining bandligini ta’minlash bo‘yicha shartnomalar imzolandi. Mahallabay asosda 51 mingta mikroloyiha amalga oshirilib, 206 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. Ishsiz fuqarolar “Ishga marhamat” monomarkazlarida zamonaviy kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitilmoqda.

Joriy yilgi davlat dasturida 5 million kishini ishli qilish belgilangan. Shundan 2 milliondan ziyodi qishloq xo‘jaligi va tomorqachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

Prezidentimiz rahbarligida shu yil 7-mart kuni mahallalarda aholi daromadini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda bu maqsadlarga 16 trillion so‘m ajratilgani qayd etildi.

Endi asosiy vazifa — bu imkoniyatlarni joylarda samarali ishlatib, aholiga daromad manbai yaratishga qaratilmoqda. Bu borada tez natija beradigan yangi mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Kelgusida mazkur tizim orqali har bir mahallaga iqtisodiy kompleks tashkilotlari rahbarlari biriktiriladi. Ular o‘zi mas’ul bo‘lgan mahalladagi kambag‘al oilalar bilan manzilli ishlab, odamlar daromadini oshirishga ko‘maklashadi. Arzon kreditlar, subsidiya va imtiyozli resurslar, eng avvalo, aholini kambag‘allikdan chiqarishga yo‘naltiriladi. Yashirin biznes qonuniylashtirilib, rasmiy ish o‘rni ko‘paytiriladi.

Davlatimiz rahbari Sayxunobod tumanidagi Ittifoq mahallasida bo‘lganida ham bu kabi masalalarga e’tibor qaratib, shunday dedi:

“Xalqimiz o‘z hayotida sezishi uchun hamma ishlarni mahallada tashkil qilyapmiz. Endi davlat idoralarining butun imkoniyatlarini har bir ko‘chaga, xonadonga olib kiramiz. Masalan, mahallaga biriktirilgan bank mablag‘ berish bilan birga odamlarning dunyoqarashini ham o‘zgartiradi. Maqsadimiz xalqning daromadini oshirish, boy qilish. Albatta, oson bo‘lmaydi. Bu mashaqqatli mehnat, tinimsiz izlanish, yangi-yangi g‘oyalar degani”.

Haqiqatan, fuqarolar daromadi darajasi ular farovonligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. U jamiyat har bir a’zosining hordiq chiqarish, bilim olish, sog‘liqni saqlash, zaruriy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilaydi. Bundan tashqari, mutasaddi idoralar tomonidan oila daromadlari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilib, umumlashtirib borishi mamlakat iqtisodiyotidagi holat haqida eng qimmatli axborot beradi va uning iqtisodiy-siyosiy kelajagini bashorat qilishga imkoniyat yaratadi. Bu boradagi tahlillar sifati aholi turmush darajasini doimiy asosda kuzatishni davom ettirish, shuningdek, hayot darajasini monitoring qilish milliy tizimini doimiy takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Zero, har bir mamlakat qanday siyosiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishidan qat’i nazar, barchasining yakuniy natijasi xalq manfaatlarini inobatga olgan holda uning farovonligi va turmush darajasini yaxshilashga qaratiladi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Abdurauf QORJOVOV suhbatlashdi.

Tomorqachilik

DEHQON HAMISHA IZLANISHDA BO‘LISHI KERAK

Boshlanishi 1-betda

Bu yil ham navoiyliklar bahorni nihoyatda iliqlik bilan kutib oldi. Fasllar kelinchagining tashrifi har bir hududda yaxshi niyatlar bilan qarshilanib, dala-dashtda dehqonchilik boshlab yuborildi.

Nurota tumanida ayni vaqtda 358 ta fermer xo‘jaligi faoliyat yuritayotir. Vazirlar Mahkamasining maxsus qaroriga asosan, ularning barchasi ko‘p tarmoqliga aylantirilib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga ularni qayta ishlash, saqlash va sotish, sanoat ishlab chiqarishi va xizmatlar ko‘rsatish bilan ham shug‘ullanmoqda. Fermerlar yetishtirayotgan go‘sht, meva-sabzavot va poliz mahsulotlari nafaqat tuman dehqon bozori, balki viloyatning boshqa hududlari, hatto qo‘shni viloyat bozorlarida ham sotilmoqda.

Hududda avval Andijon va Xorazm tajribasi ommalashgan bo‘lsa, endilikda Sayxunobod tajribasi asosida tomorqadan unumli foydalanish orqali yuqori daromad olishga kirishilyapti. Tumanda bugun 15 mingga yaqin aholi o‘z tomorqasida dehqonchilik qiladi. O‘tgan yilda tomorqalarda 485 gektar ertaki, 645 gektar o‘rtaki hamda 688 gektar to‘qsonbosti ekin ekilib, 27,9 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirildi. 2024-yilda esa aholi xonadonlariga 749 gektar ertaki, 912 gektar o‘rtaki hamda 727 gektar to‘qsonbosti ekin ekilishi va 30,4 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirilishi rejalashtirilgan.

Issiqxonalarda sabzavot, ko‘katlar va ko‘chat yetishtirish ham yaxshigina biznes. Uy oldidagi kichik issiqxona xo‘jalikni rivojlantirish uchun asos bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan barqaror daromad manbaiga aylanadi. Shu bilan birga, maqbul sharoitlarda yetishtirilgan yangi, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari doimo dasturxonda bo‘ladi. Bu borada tumandagi G‘afur G‘ulom mahallasi yetakchi. Aholining aksariyati xonadonida issiqxona qurgan. Quvondiq bobo

Fayzanov ham shu mahallada yashaydi va issiqxonasidan yaxshigina daromad olmoqda.

— Nurotada aksariyat yer lalmi. Shuning uchun sug‘oriladigan yerdan unumli foydalanish kerak. Ayniqsa, aholi tomorqalaridan samarali foydalanib, uch-to‘rt marta hosil olishni yo‘lga qo‘yish lozim. Bunga esa issiqxonalar qurish orqali erishish mumkin. Xonadonimdagi issiqxonada limon ostiga ko‘kat va bahoriy ekinlar ekilgan. Mahallamizdagi aksar xonadonlarda issiqxona bor. Kunora kelib, mendan maslahat so‘rashadi. Ularga ekin parvarishi bo‘yicha imkonim boricha tavsiyalar beraman, — deydi Quvondiq bobo.

Albatta, issiqxonani doimiy takomillashtirish va bosqichma-bosqich kengaytirish daromadni oshiradi. Bu esa ekin ekish va to‘g‘ri parvarishlash bo‘yicha muayyan ko‘nikma, malaka va bilim talab etadi.

Amir Temur mahallasida ham aksariyat xonadonlarda mo‘jazgina issiqxonalarni ko‘rasiz. Aholi allaqachon bu ishning foydasini bilib olgan. Shu sababli mahalla ahli dasturxonidan yil bo‘yi yangi yetishtirilgan sabzavot uzilmaydi.

— Mahallamizning asosiy drayveri dehqonchilik va chorvachilik. Ayniqsa, bu hududda issiqxonalarda limon yetishtirish rivojlangan. Ayrim xonadonlarda 1,5-2 sotix issiqxona bo‘lsa-da, turli ekinlar yetishtirish yo‘lga qo‘yilgan. Limon ostidagi yerga bir necha turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ekilib, mo‘l hosil olinmoqda. Muhimi, tomorqadan unumli foydalanish orqali mahallamiz ahli farovon hayot kechirmoqda, — deydi Amir Temur mahallasi raisi Rahmatjon Saidov.

Yurtimiz serquyosh, yerimiz serunum. Muhimi, bundan samarali foydalanish bozorlarni to‘kin, aholi hayotini yanada farovon qiladi.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yuksalish pallasi

STEREOTIPLARDAN XOLI AYOLLAR

Ayol va bahor — mushtarak tushunchalar. Ikkisi ham yaratuvchan, olamga go‘zallik baxsh etadi. Ayol bugun nafaqat ona, balki jamiyat hayotining barcha jabhasida faol, yetakchi. Bugungi suhbatdoshlarimiz ham yurtimizda o‘z o‘rniga ega ayollar. Bilim beradi, ruhlantiradi, o‘zgalar yutug‘idan quvonadi, bu mamnunlik yangi marralarni zabt etishda ularga kuch va quvvat bag‘ishlaydi.

“Ibrat farzandlari”da ularning alohida o‘rni bor

2022-yil noyabr oyida tashkil etilgan “Ibrat farzandlari” loyihasi hozirgi kunda yoshlarning til o‘rganishi uchun ajoyib imkoniyatga aylandi. Xorijiy tillarni bepul, sodda, tizimli va kreativ usulda o‘rgatishni maqsad qilgan loyihada bir nechta chet tillarni qisqa muddatda o‘zingizga qulay bo‘lgan joydan turib, bemalol o‘rganishingiz mumkin.

— Loyiha O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib xorijlik mehmonlar uchun o‘zbek tili va grammatikasini o‘rgatishni yo‘lga qo‘ygan. Bugungi kunda loyiha doirasida 22 ta xorijiy til, o‘zbek tili, savodxonlik darslari, imo-ishora tili o‘rgatib kelinmoqda, — deydi “Ibrat farzandlari” loyihasi menejeri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Mahfuza Ortiqova. — Yurtimizning chekka hududlaridagi iste’dodli, moliyaviy imkoniyati cheklangan, lekin chet tillarni o‘rganishga ishtiyoqi baland o‘quvchilarga ham xorijiy tillarni o‘rgatish, tillar bo‘yicha savodxonligini oshirishga xizmat qilayotgan loyihaning rivojida olima, o‘z ishining ustasi bo‘lgan ayol-qizlar ham faol ishtirok etmoqda.

Ha, bugun “Ibrat farzandlari” nafaqat yoshlar, balki katta yoshli yurtdoshlarimiz orasida ham ommalashib ulgurdi. Axir sodda va oson usulda, boz ustiga tekin til o‘rganish kimga ham ma’qul kelmaydi, deysiz?! Loyiha doirasida fransuz, nemis, ispan, italyan, grek, yapon, koreys, xitoy, hind, ozarbayjon, vyetnam, urdu, qoraqalpoq, rus, turk, ingliz tili, shuningdek, bolalar uchun ingliz tili, imo-ishora tilidan videodarslar jamiyatimizda o‘z o‘rniga ega, xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan ayollar tomonidan olib borilmoqda.

Ular orasida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktorlari Nigina Rasuleva, Mohira Umarova, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti kafedra mudiri Bahora Ergasheva, xalqaro toifadagi ustoz va mutaxassislar Saida Rashidova, Dilafruz Ikromova, Dilfuza Latipova, Muqaddas Taylanova, Kamola Rahmatjonova, Nadejda Mahkamova, Shohista Kamronli, Surayyo Musayeva, Munisa Qodirova, shuningdek, darslarni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etadigan Zamira Turganbayeva, Feruza O‘rolova, Sarvinoz Saida’zamova, Hojiraxon Abdukarimova kabilar bor.

— Ayollar ta’limi jamiyat rivojida muhim omil hisoblanadi. Zero, “Oilang farovonligini istasang, o‘g‘lingni o‘qit, jamiyat rivojini istasang, qizingni o‘qit”, deb bejiz aytishmagan, — deydi loyihaning italyan tili o‘qituvchisi Bahora Ergasheva. — “Ibrat farzandlari” loyihasida dars berib kelayotgan, uning rivoji uchun beminnat hissa qo‘shayotgan mutaxassislar orasida ayol-qizlar ko‘pligi ham mamlakatimizda nozik xilqat vakillariga berilayotgan yuksak e’tibor ifodasidir. Yoshlar orasida xorijiy tillarni o‘rganishni yanada mustahkamlash, ularni mazkur jarayonga keng jalb etish maqsadida bir qancha xorijiy universitetlar, jumladan, Italiyaning qator nufuzli oliy ta’lim dargohlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yganmiz.

Ustozlar ishtirokida suratga olingan videodarslarning o‘quvchilar tomonidan yanada chuqur o‘rganilishiga erishish maqsadida “Ibrat Academy” mobil ilovasi ishlab chiqilgan. Unda foydalanuvchilar 20 dan ortiq tilni o‘rganish, lug‘at yodlash va testlarni yechish orqali bilimini yanada mustahkamlab borishi mumkin.

“Ibrat farzandlari” loyihasining “Ibrat Academy” mobil ilovasi ko‘plab xotin-qizlar turmushini yaxshilashga ham xizmat qilib kelmoqda. Shunday ayollardan biri boyovutlik Xurshida Egamnazarovadir.

U “Ibrat farzandlari” loyihasi tashkil etilishi bilan ingliz tilini o‘rgana boshlagan. Ilgari dalada ketmon chopib, paxta terib, uch nafar farzandini parvarishlab kelganini, keyinchalik mazkur loyihadan ingliz, fransuz va koreys tillarini o‘rganib, avval farzandlariga, so‘ng boshqa bolalarga o‘rgatib, shuning ortidan ro‘zg‘or tebratayotgani haqida hikoya qiladi.

Sirdaryo viloyati hokimligi tomonidan Xurshidaning faoliyati uchun qurib berilgan o‘quv markazi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan to‘liq jihozlandi. Bugun markazda yuzlab o‘quvchi zamonaviy sharoitlarda ta’lim olmoqda. Quvonarlisi, mazkur markazning 7 nafar o‘quvchisi Prezident maktabi kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tishga, yana bir necha o‘g‘il-qiz fan olimpiadalarida yuqori o‘rinlarni egallashga muvaffaq bo‘ldi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, yurtimizda har bir xonadonga kirib borayotgan mazkur loyihaning Toshkent shahri va viloyatlarda loyiha ofislari tashkil etilgan bo‘lib, ular yoshlarning xorijiy tillarni puxta o‘rganishiga, kerakli videomahsulotlar bilan tanishishiga yordam bermoqda.

Axborot texnologiyalari — xotin-qizlar uchun qulay tanlov

Inson o‘qib-izlanar ekan, muvaffaqiyat u bilan yonma-yon yuradi. Yurtimizda mehnati evaziga katta-katta yutuqlarga erishayotgan xotin-qizlar safi yildan yilga kengaymoqda. Tenge Market onlayn savdo platformasida mahsulot menejeri sifatida faoliyat olib borayotgan Maftuna Lutfullayeva ham ana shu safda.

Maftuna Toshkent shahridagi Axborot texnologiyalari kollejida o‘qib yurgan kezlari qaysi sohani chuqur o‘rganishi kerakligini bilmasdi. “Technovation Uzbekistan” tanlovidagi ishtiroki uning hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. U o‘z ilovasini ishlab chiqib, bu jarayondan zavqlandi. Mana shu zavq tufayli sohaga qiziqishi ortdi.

Toshkent shahridagi Inha universitetida axborot va kommunikatsiya muhandisligi bo‘yicha tahsil oldi. ITga qiziqishi talabalik yillarida yanada kuchaydi. Ayniqsa, intellektual kenglikka qiyoslanadigan startaplar uni o‘ziga tortaverdi.

— Startap — bir necha kishining tinimsiz mehnati. Bu ish tavakkalchilikni talab qiladi, — deydi M.Lutfullayeva. — Uch yil davomida Calypso Intelligent Solutions kompaniyasida mahsulot dizayneri va mana shu kompaniyada asos solingan Coozin startapida mahsulot menejeri sifatida faoliyat olib bordim. Coozin startapi ayollarni uyda o‘tirgan holda ish bilan ta’minlashga qaratilgan, aniqroq aytsam, uyda pishirilgan taomlarni yetkazib berish xizmati. U xotin-qizlarning iqtisodiyotdagi faolligini oshirish va salohiyatini texnologiya orqali rivojlantirishni maqsad qilgan. Onlayn platforma uyda pishirilgan mazali va sifatli taomlarni arzon narxlarda sotib olish imkoniyatini beradi. Tenge Market onlayn savdo platformasida mahsulot menejeri bo‘lish bilan birga Women TechMakers, GDG Tashkent, ADPList tashkilotlarida ayollar va sohaga yangi kirib kelayotgan mutaxassislar uchun IT tadbirlarini tashkil kilishda yordam beraman.

> **IT sohasida qizlar soni hali ham kam. Ba’zi kompaniyalarda boshqaruvni qizlarga ishonishga hamon qo‘rqishadi. Odamlar qizlarning malakali rahbar bo‘la olishiga ishonmaydi. Mening ishimga ishonchsizlik bilan qaraganlar bo‘lgan.**

IT sohasida qizlar soni hali ham kam. Ba’zi kompaniyalarda boshqaruvni qizlarga ishonishga hamon qo‘rqishadi. Odamlar qizlarning malakali rahbar bo‘la olishiga ishonmaydi. Mening ishimga ishonchsizlik bilan qaraganlar bo‘lgan. Faoliyatim davomida xotin-qizlarning faolligi gender muvozanatni yanada samarali qilishini angladim.

Jamiyatimiz mentalitetida ko‘proq insonparvarlik kasblari ayollarga mos keladi, degan fikr bor. Bu stereotip noto‘g‘ri. Ammo hozir ijobiy o‘zgarishlar tez-tez ko‘zga tashlanmoqda. IT sohasiga qiziqayotgan qizlar soni ortib bormoqda. Chunki bu yerda istalgan joyda ishlashingiz mumkin, ma’lum bir ish joyiga bog‘lanish yo‘q. Bundan tashqari, moslashuvchan ish soatlari bo‘lgan lavozimlarni topasiz.

Inson hech qachon yangi narsalarni sinab ko‘rishdan qo‘rqmasligi kerak. Asosiysi, boshlash va bajarish. Harakat va xohish esa o‘z mevasini bermay qo‘ymaydi.

Opa-singillarimizda kompyuter grafikasi va dizaynerlik faoliyati bo‘yicha o‘qish, mobil ilova, veb-sayt, dasturiy mahsulotlarni yaratish hamda dasturchi sifatida shakllanishga intilish kuchli. Buning uchun mamlakatimizda zarur shart-sharoit yaratilgan. Faqat ayrim stereotiplarni yengish, orzu-maqsadlar yo‘lida dadil odimlash, imkoniyat va imtiyozlardan unumli foydalanilsa, bas. Bu bilan nafaqat daromad topib, ro‘zg‘origa butlik olib kiradi, balki jamiyat rivojiga ham munosib hissa qo‘shadi.

Zero, bugun dunyoda kun sayin yangidan yangi nou-xaular yuzaga kelmoqda, jahon iqtisodiyotining raqamlashuvi va boshqa omillar texnologiyalar sohasi oldiga yuksak vazifalar qo‘ymoqda. Shu nuqtayi nazardan, jahon maydonida mustaqil, qat’iy fikr va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasiga ega yetuk kadrlarga ehtiyoj bo‘laveradi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA yozib oldi.

Yetuklik ostonasida

MUVAFFAQIYAT O‘Z-O‘ZIDAN KELMAYDI

Boshlanishi 1-betda

Oddiy oilada kamolga yetgan Muhayyoxon maktab va kasb-hunar kollejida o‘qib yurgan kezlaridayoq bilimga chanqoqligi, izlanuvchanligi bilan tengdoshlaridan ajralib turardi. Fanlarni o‘zlashtirish bilan birga xorijiy tillarni o‘rganishga astoydil harakat qildi. Jamalak sochli qizalog‘ining xatti-harakatlaridan quvongan oddiy haydovchi Alisher aka, uy bekasi Nafisa opa uni har jihatdan qo‘llab-quvvatlab keldi. U katta oilaning to‘rtinchi qizi. Unda o‘g‘il bolalarga xos qat’iylik, bir maqsad yo‘lida intilish kabi xislatlar bor. Uy-ro‘zg‘orda uchrab turgan qurilish va ta’mirlash bilan bog‘liq ishlarda dadasiga haminqadar yelkadosh bo‘lib, ko‘mak berishga harakat qilardi.

Yaratuvchilik, bunyodkorlik yo‘lidagi izlanishlari uni Farg‘ona politexnika instituti sari yetakladi. Bu bilim maskani yosh iqtidor egasining hayot tarzi, kundalik ish amalida o‘ziga xos o‘zgarishlar yasadi. Xayolida charxlanib yurgan g‘oya va tashabbuslarni ro‘yobga chiqarish, ilmiy asosda boyitishga undadi. Bunda ustozlar ko‘magining o‘rni katta bo‘ldi. Dastlab shunchaki qiziqishdan boshlangan izlanishlar ko‘lami kundan kunga kengayib bordi.

— Institutning qurilish fakultetida tahsil olayotganimdan xabar topganlar hayron bo‘lgan. “Qiz bola boshing bilan qurilishda nima bor? G‘isht ko‘tarib yurasanmi? O‘qishni boshqa yo‘nalishga ko‘chir”, deya maslahat berganlar ham topildi. To‘g‘risi, ikkilangan paytlarim bo‘lgan. Oilamdagilar maqsad va niyatlarim yo‘lida ortga qaytmaslikka da’vat etib, har jihatdan yordam bergan, — deydi Muhayyoxon.

Muvaffaqiyatlar o‘z-o‘zidan kelmaydi. Talabalikning birinchi bosqichida Marg‘ilon shahrida 16-30 yoshlilar o‘rtasida o‘tkazilgan kompyuter savodxonligi tanlovi g‘olibi bo‘lib, “3Ds max” yo‘nalishi bo‘yicha Raqamli texnologiyalar markazida grant asosida ta’lim olish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. 2021-2023-yillar mobaynida xalqaro va respublika ilmiy nashrlarida qurilish materiallari ishlab chiqarish muammolari yechimiga oid 30 ga yaqin ilmiy maqola va tezislari chop etilib, AQSH, Rossiya, Germaniya va Hindistonda uslubiy qo‘llanma sifatida e’tirof etildi.

> MUVAFFAQIYATLAR O‘Z-O‘ZIDAN KELMAYDI. TALABALIKNING BIRINCHI BOSQICHIDA MARG‘ILON SHAHRIDA 16-30 YOSHLILAR O‘RTASIDA O‘TKAZILGAN KOMPYUTER SAVODXONLIGI TANLOVI G‘OLIBI BO‘LIB, “3DS MAX” YO‘NALISHI BO‘YICHA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MARKAZIDA GRANT ASOSIDA TA’LIM OLISH IMKONIYATINI QO‘LGA KIRITDI. 2021-2023-YILLAR MOBAYNIDA XALQARO VA RESPUBLIKA ILMIY NASHRLARIDA QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH MUAMMOLARI YECHIMIGA OID 30 GA YAQIN ILMIY MAQOLA VA TEZISLARI CHOP ETILIB, AQSH, ROSSIYA, GERMANIYA VA HINDISTONDA USLUBIY QO‘LLANMA SIFATIDA E’TIROF ETILDI.

Yoshlar ishlari agentligi, “Westminster Academy” va “Uzbekistan Volunteer Association” forumida sertifikat bilan taqdirlandi. U “Qurilish materiallari sanoatida issiqlik texnikasi” fanidan ma’ruzalar to‘plami va uslubiy ko‘rsatmalar muallifi. 2023-yili Rossiyada bo‘lib o‘tgan “2022-2023-o‘quv yili talabalarining loyiha-tadqiqot faoliyati” konkursi g‘olibi bo‘ldi.

— Ilm-fan yo‘lidagi izlanishlarimni qo‘llab-quvvatlab, rag‘batlantirganlardan cheksiz minnatdorman, — deydi Muhayyoxon. — Bu yutuq va e’tiroflar zimmamga katta mas’uliyat yukladi, daxldorlik hissini oshirdi. Yangi O‘zbekiston ulkan qurilish va bunyodkorlik maydoniga aylanib ketdi. Osmonga bo‘ylashib borayotgan qurilishlar har qachongidanda avj oldi. Inshootlarning sifatli va puxta bo‘lishi, tannarxini arzonlashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri. Men ana shu yo‘lda ustozlar ko‘magida ikkilamchi sanoat chiqindilaridan arzon va qulay bo‘lgan gips bloklar ishlab chiqarish loyihasini amaliyotga joriy qildim.

Yosh olimaning bu yo‘nalishdagi izlanishlariga tegishli idoralarning guvohnomasi berilgan. Bu loyiha nafaqat arzon va sifatli mahsulot ishlab chiqarish, balki qurilish chiqindilaridan atrof-muhitga yetkazilayotgan turli zararlarning oldini olish, ekologik musaffolikni saqlashda katta samara berayotgani bilan ajralib turadi.

— Talabamizning Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘lgani bilan haqli ravishda faxrlanamiz, — deydi Farg‘ona politexnika instituti katta o‘qituvchisi Muyassarxon Karimova. — U har jihatdan ko‘pga o‘rnak bo‘lib kelayotgan intiluvchan yoshlardan. O‘z maqsadi yo‘lida mavjud qiyinchiliklarni hamjihatlikda yengib o‘tishga harakat qiladi, izlanadi. Hamkorlikdagi loyihalarimiz bu bilan cheklanib qolgani yo‘q. Ayni kunda ikkilamchi sanoat chiqindilaridan maqsadli foydalanish, ekologiyaga yetkazilayotgan zararlar oldini olishga qaratilgan yangi turdagi qurilish materiallari ishlab chiqarish borasida ilmiy izlanishlar, amaliy tajribalar o‘tkazyapmiz.

Bilim olish igna bilan quduq qazishga qiyoslanadi. Bu hayotiy hikmat zamirida sarb-bardosh, o‘z maqsadi yo‘lida izlanish va intilishdan qolmaslik kabi xislatlar qanchalik muhimligini ig‘lab olish qiyin emas. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori Muhayyoxon Yo‘ldosheva bu hayot haqiqatiga amal qilib, vatanimiz ravnaqi yo‘lida bor kuch-g‘ayrati, bilim va salohiyatini namoyon etayotgan iqtidorli qiz lardan.

Rasuljon NAZIROV,
jurnalist

2024-yil 21-mart, 58-son

Minglab otlar orasida ham Abdulhay akaning ko‘ziga o‘zining qo‘l mehnati o‘tdek ko‘rinadi. Hattoki otning oyog‘ida loyga qorishib, ko‘rinmay qoladigan mahsulotlarini ham hunarmand bir qarashda tanib oladi.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Boqiy meros

Bundan ikki yil avval Bo‘zatovda o‘tkazilgan “Yoshlar ovozi” respublika festivali doirasida tashkil etilgan tanlovda Ashirbek Qo‘ziboyev baxshichilik yo‘nalishida birinchi, Baxitbek Qalibayev opera yo‘nalishi bo‘yicha ikkinchi o‘rinni egalladi.

El an’anasini ulug‘lash san’ati

“Ajoyib va betakror ovoz egalari qayerdan paydo bo‘ldi? Ustozlari kim? Qayerda tahsil olgan? Bizda ham yosh iste’dodlar ko‘p ekan-ku! Biz ham farzandlarimizni shu maktabga beraylik”, degan qiziquvchilar ko‘paydi.

— O‘g‘lim Baxitbek Qalibayev uch yildan buyon Nukus shahridagi opera va baxshichilik san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatda o‘qiydi. Rosti, ushbu maktab-internat ochilgan paytda juda quvonganmiz. Chunki oldin o‘g‘lim akademik vokal yo‘nalishi bo‘yicha musiqa maktabiga qatnardi, — deydi nukuslik Dilbarxon G‘aniyeva. — Bolajonim erishayotgan yutuqlar zamirida ustozlarining mashaqqatli mehnati bor. Davlatimiz yoshlar uchun mana shunday zamonaviy sharoitlar yaratib berayotganidan barcha ota-onalar juda minnatdor.

“Bunday maktablarni tashkil etishimizdan asosiy maqsad — tariximizni, madaniyatimizni chuqur o‘rganish, o‘zligimizni anglash. Baxshichilik — qoraqalpoq elining ulug‘ an’anasi, uni rivojlantirish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”, degan edi davlatimiz rahbari ushbu maskanga tashrifi chog‘ida.

— Maktabimizda 75 o‘quvchi mutaxassislik hamda umumta’lim fanlaridan chuqurlashtirilgan tartibda ta’lim olmoqda, — deydi maktab-internat direktori, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist Daribay Xojabergenov. — Ular “Akademik xonandalik”, “Cholg‘u ijrochiligi”, “Baxshichilik” yo‘nalishlari, shuningdek, mutaxassisliklar, ixtisoslikka doir yakka va guruh bilan o‘tiladigan fanlar, musiqa nazariyasi hamda amaliy bilim ko‘nikmalari bo‘yicha o‘qitilmoqda. Bizda mutaxassislik sinflari bo‘yicha O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq baxshilari, xizmat ko‘rsatgan artistlar, “Nihol” mukofoti sovrindorlari, mamlakat va xalqaro tanlovlar g‘oliblari hamda o‘z o‘qitish uslubiga ega mahoratli o‘qituvchi va konsertmeysterlar, tajribali fan o‘qituvchilari saboq berib kelmoqda.

Prezidentimizning 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida sohani tubdan isloh qilish, madaniyat va san’at sohasida qobiliyatli yosh ijrochilarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muassasalarini milliy cholg‘ular, musiqa darsliklari, notalar to‘plamlari va o‘quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta’minlashning yagona tizimini yaratish bo‘yicha bir qator vazifalar belgilab berilgan.

— Qoraqalpog‘istonda opera janrida o‘ziga xos maktab mavjudligini ko‘pchilik yaxshi biladi. Muyassar Razzoqova, Kenesbay Serjanov, Eliza Aytniyazova, Tolibek Xojanazarov, Roza Qutekeyeva, Jenisbek Piyazov, Shiraz Tursinbayev singari taniqli opera xonandalari yurtimiz san’ati dovrug‘ini dunyoga taratmoqda. Baxshichilik yo‘nalishida esa O‘zbekiston xalq baxshilari G‘ayratdin Utemuratov, Tenel Qalliyev,

Qoraqalpog‘iston xalq baxshilari Gulnora Allambergenova, Gulbahor Aximbetova, “Nihol” mukofoti sovrindori Muhammed Torebekov, Lola Maxamadinovalarni faxr bilan tilga olamiz, — deydi maktab-internat direktori Daribay Xojabergenov. — Maktabimizda tarbiyalanayotgan bolalar ham yaqin kelajakda ana shu ustozlaridek san’atimizning buyuk darg‘alari bo‘lib yetishishiga ishonchim komil.

Maktab o‘quvchilari xalqaro tanlovlarda ham sovrinli o‘rinlarni egallab keladi. Jumladan, o‘quvchilarimiz — baxshi Jumabayeva Jasmina, Joldasbayeva Ayzada nufuzli xalqaro tanlovlar g‘olibi bo‘ldi.

— 2023-yil fevral oyida Qoraqalpog‘iston xalq jirovi Jaqsiliq Sirimbetovning 75 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Dostonlarni jirlaymiz” nomli 1-Respublika ko‘rik-tanlovida 8-sinf o‘quvchilari Dao‘letnazar Xabibnazarov va Muhammedali Bekbergenov “Kelajak jirovlari” nominatsiyasi g‘olibi deb topildi, — deydi mazkur maktab direktor o‘rinbosari Yesmurza Karimov. — Bundan tashqari, Qozog‘istonda o‘tkazilgan “Biz baxtli bolamiz” xalqaro tanlovida Gran-prini qo‘lga kiritdik. Shuningdek, Jasmina Jumabayeva, Ayjamal Ayapova, Begzad Genjemuratov, Sayyora Xudaybergenova, Nurdao‘let Sarsenov, Umida Ayapova va Aysulio‘ Uzaqbayeva kabi o‘quvchilarimiz bilan har qancha maqtansak arziydi.

Yoshlar iste’dodini yuzaga chiqarish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tanlovlar, xalqaro festivallar, yirik san’at anjumanlari ko‘p. Jumladan, Bo‘zatov tumani va Nukus shahrida tashkil etilgan “Yoshlar ovozi” respublika festivali ham yurtimizda iste’dodli yoshlarni kashf etishga xizmat qilmoqda. Xalqaro baxshichilik san’ati, “Lazgi”, “Maqom”, “Boysun bahori”, “Yoshlik bahori” singari yirik xalqaro tanlov va festivallarda ham qoraqalpog‘istonlik yosh iste’dodlar munosib ishtirok etib, sovrinli o‘rinlarni egallab kelmoqda. Ushbu dargohda bilim olayotgan yoshlarning parvozi baland bo‘lishi shubhasiz.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qadriyat

Bugun UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan yana bir milliy merosimiz namunasi, azaliy qadriyatimizga aylangan egarchilik haqida so‘z yuritamiz. Qahramonimiz — “Hunarmand” uyushmasi milliy katalogidan o‘rin olgan qo‘qonlik hunarmand, “Shuhrat” medali sohibi Abdulhay Isoqov.



XONNING DUOSINI OLGAN “Usta Kichkina”

Usta kichkinaning avlodlari

Aytishlaricha, Qo‘qonda Xudoyorxon tez-tez hunarmandlar rastalarini aylanib turar ekan. Bir kuni u egar yasaydigan hunarmandning do‘koniga kirib qolibdi. Egarchining jussasi kichkina bir shogirdi bor ekan. Oyoq-qo‘li yengil, chaqqongina bu yigitchaning tavozeli ekani-yu qilib turgan ishi xonga yoqib qolibdi. Xon hunarmanddan “Bu kichkina ham usta bo‘lib qoldimi”, deb so‘rabdi. Ustoz shogirdi haqida xo‘p yaxshi gaplarni aytibdi. Shundan so‘ng Xudoyorxon shogird yigitni astoydil duo qilibdi. Shu-shu chaqqon yigit “usta kichkina” laqabini olib, mashhur egarchi bo‘lib ketadi. O‘sha paytda Germaniyadan keladigan qizil vagonlarga eksport bo‘ladigan boshqa mahsulotlar bilan birga usta kichkinaning egarlari ham ortilar ekan. Barcha hunarmandlar o‘zlari yasagan egarlarni usta kichkinaga olib kelar, u esa egarlarning kam-ko‘stini to‘g‘rilab, o‘zining qolipiga solgan holda chetga yuborar ekan.

Bu hikoyani so‘zlar ekan, Abdulhay aka yevropaliklar egarchilik hunarini aslida, bizning egarlarimizni ko‘rib rivojlantirganidan g‘ururlandi. Biz ham shu ma’noda qo‘qonlik egarchilarni usta kichkinaning avlodlari, deya alqadik. Hunarmandning aytishicha, bugungi kunda Ispaniya, Italiya, Fransiya, Amerikada bezakli ot anjomlarini tayyorlash ancha takomillashib ketgan.

Taqdirning tuhfasi

Qahramonimizning ota-bobolari egarchilik bilan shug‘ullanmagan. Maxsi tikib yurgan kezlari bir kun kelib, egarchi bo‘lib tanilishi o‘zining-da xayoliga kelmagan.

— Bu hunarni boshlashimiz juda qiziq bo‘lgan. Shuhratjon degan bir yigit, yana boshqa tanish otboqar ukalarimiz bor edi. Bundan 20 yillar avval 80-100 tadan ot boqib, ot anjomlarini boshqa yerlardan olib kelib qiynalishgan. Maxsi tikkanim uchun otning ayilini tikib, bezab berardim. Ishimni ko‘rishgach, “Aka, siz egar-jabduq yasang, qo‘lingizdan keladi”, degan taklifni berishdi. Qayerda ko‘rishsak, “Aka, shu ishni qilmadingiz-da”, deyaverganlaridan xijolat bo‘lib, mayli, ot anjomlaridan bir nusxa beringlar dedim. Olib kelib berishdi. O‘shanga qarab tayyorlab ko‘rgandim, o‘xshab qoldi. Haligi yigitlarga ham ma’qul keldi. Shu bilan egarchilikni boshlab yubordik. Ikki o‘g‘lim, qizlarim, nevaralarim ham yonimga kirdi, — deydi hunarmand.

Avvaliga bir to‘plamni 10-15 kunda tayyorlagan qo‘llar hozir 3-4 kunda ishni bitirishga o‘rganib ketgan. Albatta, oson bo‘lmaydi, vaqti kelsa, kechayu kunduz ishlanadi. Har kimning o‘z vazifasi bor. Ayollar tayyor egarlarga to‘shamalar tikadi, yopinchiqlarini bezaydi. Sodda qilib aytganda, otning usti but bo‘lishi uchun ham o‘ziga yarasha anjomlar kerak bo‘ladi. Otboqarlarning aytishicha, chiroyli kiyintirilib, yasatib qo‘yilsa, otlar ham xursand bo‘lib, boshqacha yo‘rg‘alab qolar ekan. Biroq eng asosiysi — egar.

Agar egar otga mos bo‘lsa, jonivorning ishi besh, deyavering. Katta yoki kichik kelgan egarning ost qismi otning ustiga yaxshi o‘rnashmay, jonivorga botib yoki surilib ketib, uning joni og‘rishi aniq. Shuning uchun hunarmandning mohirligi egarlari har qanday otga tushib ketaverishida ko‘rinadi. Bunday egarlarni esa hamma ham yasay olmaydi. Abdulhay aka egarni barmog‘i bilan o‘lchab yoki bir qarashda qaysi otga tushishini ayta oladigan xaridorlari, tajribali otboqarlar borligini aytdi.

Mahsulot turi o‘ttizdan ortdi

Voha egarchilari xomashyo sifatida, asosan, oq toldan foydalanadi. Vodiyda esa o‘rik, behi, yong‘oq kabi mevali, qattiq daraxtlar ham ishlatiladi. Buning o‘ziga yarasha sabablari, sir-sinoati bor, albatta. Jizzax, Surxondaryo, Samarqand tomonlarda egarning 20 dan ziyod bo‘lagi birlashtirilib yasalishiga guvoh bo‘lasiz. Mixli, mixsiz egar, payli egar, qizil egar kabi turlari ko‘p. Qo‘qonlik hunarmandlar, xususan, Abdulhay aka ham bu borada murakkab usuldan foydalanib, yog‘ochdan egarni bir butun, yaxlit holda chopib oladi. Egar ustiga xom teri tortiladi. Bu uning mustahkamligini 80-90 foiz oshiradi. Bo‘laklardan yig‘ib tayyorlaganda esa egarning chidamliligini oshirish uchun hayvonning payidan foydalaniladi. So‘yilgan echki, qo‘y, molning payi salqinda quritilib, temir orasiga qo‘yib bolg‘a bilan urilsa, ipakka o‘xshagan tolalar hosil bo‘ladi. Teri qoldiqlaridan tayyorlanadigan yelim bilan pay egarga yopishtiriladi. Milliy hunarmandligimizning qudratini qarangki, egarchilikda hammasi tabiiy, qo‘l mehnati bilan bajariladi. Hatto hayvon terisi qoldiqlari ham ustalar qo‘lida yelimga aylanyapti. Mana, egarchilarimiz nimalarga qodir?! Bejiz bu hunar turi UNESCO tomonidan e’tirof etilmagan.

— 20 yil avval 4-5 turdagi ot anjomini tayyorlagan bo‘lsak, hozir 30 dan ortiq mahsulot ustida ishlaymiz. Albatta, 20 yil oldin turmush tarzi ham boshqacha, internet endi kirib kelayotgan edi, — deydi qahramonimiz. — Endi esa bemalolchilik. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, ishimizni yanada takomillashtiryapmiz. Yevropa uslublarini uyg‘unlashtirib, bitta mahsulotning o‘zini 5-6 xil ko‘rinishga keltiryapmizki, bu tanlash imkonini kengaytiradi.

Darvoqe, Abdulhay aka bosh hunarmandlar chavandozlarni egar-jabduqdan tashqari maxsus etiklar bilan ham ta’minlab kelyapti. Qo‘lda tikiladigan bunday etikni tikish uchun bir necha kun, hatto bir hafta vaqt talab etiladi. 450 ming so‘mdan boshlab 100 AQSH dollarigacha sotilayotgan etiklardan suv o‘tmasligi uchun asalari mumidan foydalaniladi. Ayniqsa, uloq mavsumida ularning bozori chaqqon.

Ayb o‘zingizda...

Minglab otlar orasida ham Abdulhay akaning ko‘ziga o‘zining qo‘l mehnati o‘tdek ko‘rinadi. Hattoki otning oyog‘ida loyga qorishib, ko‘rinmay qoladigan mahsulotlarini ham hunarmand bir qarashda tanib oladi.

— Ot mingan odam o‘zini boshqacha his qiladi. Ayniqsa, uning ustida o‘zingiz yasagan mahsulotlar bo‘lsa, ishonch bilan o‘tirasiz, — deydi u.

Ba’zan doimiy mijozlariga hazillashib, “Ha, kamnamo bo‘lib ketdinglar”, desa, ular bunga javoban “Ayb o‘zingizda, o‘ta mustahkam yasaganingiz uchun egarlaringiz uzoqqa yetadi, shuning uchun kamnamomiz”, deydi. Abdulhay aka bundan faqat xursand bo‘ladi. Mijozlarim tez-tez kelsin, deb mahsuloti sifatini pasaytirish fikridan butunlay yiroq. Mahsulotlarini el qatori, balki undan ham arzonroq sotishga harakat qiladi. 8-10 ming so‘mdan foyda qoladigan qo‘l mehnati ham baraka keltiraveradi. Daromad haqidagi savolimizga Abdulhay aka bunday dedi:

— Hunarning ortidan mashina, bir o‘g‘limga hovli oldik. Umra safariga borib keldik. Nasib qilsa, kichik o‘g‘ilga ham hunardan keladigan daromad bilan uy-joy qilamiz. Qo‘shni tumanlarda 15 ga yaqin kasanachimiz bor. Egarchilik ortidan ularning ham qozoni qaynab turganidan baxtiyormiz. Shukrki, shu paytgacha mehnatimiz qadrlanmay qolganini ko‘rmadik. Bunga sabab davlatimizda qo‘l mehnatiga bo‘lgan yuksak e’tibor deb bilaman. Soliqlardan ozod bo‘lganimiz, xalqaro ko‘rgazmalarda qatnashayotganimiz, butun dunyo hunarmandlari Qo‘qonga jam bo‘ladigan davrlar kelganiga ming shukr. Rosti, avval oddiy hunarmandning davlat mukofoti olganini eshitmas edik. Respublika “Hunarmand” uyushmasidan qo‘ng‘iroq qilib, “Siz davlat mukofoti bilan taqdirlandingiz”, deyishganida ko‘zimdan yosh chiqib, xursand bo‘lib ketganman. Mustaqilligimizning 30 yilligi munosabati bilan “Shuhrat” medalini berishdi. Bu o‘ziga yarasha mas’uliyat ham yuklaydi. Shu ma’noda, shogirdlar safini kengaytirishga, kasanachilikni rivojlantirishga harakat qilyapmiz, kuchimiz yetganicha xalq uchun xizmatda bo‘lishga tayyormiz. Aslida ham shu hunar bilan birga yashar ekanmiz, o‘zimizdan keyingi sulola davomchilari bizdan-da yaxshiroq bo‘lishi, butun dunyoga tanilishi uchun mehnat qilishimiz kerak. Bizdan keyin ham hunarimiz davom etishini o‘ylaganimda charchoqlar chiqib ketadi. Faoliyatimiz bilan qiziqib, mana, uzoqlardan suhbatlashish uchun kelyapsiz. Bu ham biz — hunarmandlarga alohida e’tiborning yana bir misoli. Qolaversa, odamning tayin ishi bo‘lsa, mahsulotini bir joyga olib borib sotishni o‘ylamasa, xaridorlarning o‘zi qidirib kelib tursa, shuning o‘zi baxt.

Munojat RAHIMJONOVA,
jurnalist

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 956.
44909 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 21:30 Topshirildi — 01:25